

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA TA'LIM FALSAFASI

Abdunazarova Zebiniso Xudoyshukurovna
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Tabiiy fanlar maktab o'quvchilariga butun borliq to'g'risida umumiy tushunchalarni beruvchi fan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ushbu fanni o'qitishda turli qiziqarli o'yinlar asosida va samarali o'qitish metodlaridan foydalanib dars berish muhim sanaladi. Ushbu maqolada tabiiy fanlar fanini o'qitishda ko'mak beruvchi og'zaki o'qitish metodlari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: suhbat metodi, metodik uslublar, hikoya metodi, didaktik uslublar, tabiat hodisalari.

Kirish. Tabiiy fanlar biosferaga oid ilmiy tadqiqotdir. Tabiatshunoslar odatda tajriba o'rniga kuzatuvdan foydalanishadi. Tabiiy fanlar hayot shakllarining kelib chiqishi va yashash tarzi haqidagi ma'lumotlarni to'playdi va tizimga soladi. U biologiyaning ost sohasi bo'lib, botanika, zoologiya bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir va paleontologiya, ekologiya, biokimyo, geologiya va iqlimshunoslik kabi fanlar bilan aloqadadir. Tabiiy fanlar, tabiiyot - tabiat haqidagi fanlar tizimi, tabiiy fanlar majmui. Tabiatning inson ongidagi aksi bo'lgan tabiiy fanlar jamiyatning rivojlanishi bilan mukammallashadi. Tabiiy fanlarning maqsadi - tabiat hodisalarining mohiyatini aniqlash, tabiat qonunlarini bilish hamda ulardan amalda foydalanish imkoniyatlarini ochib berish. Tabiiy fanlar, asosan, fundamental fanlar bo'lgan mexanika, fizika, kimyo va biologiyadan tashkil topgan. Astronomiya, geologiya, tibbiyot fanlari, qishloq xo'jaligi fanlari, ekologiya kabi ko'plab bilim tarmoqlari shu fundamental fanlardan kelib chiqqan. Metodlar bilan metodik uslublarni farqlash muhimdir. Metodik uslub-bu metodning unsurlaridan biri, uning tarkibiy qismidir (ko'rgazma vositalarni, kinofilm fragmentlarini, diafilm, diapozitiv ko'rsatish, doskada sxema rasmlardan foydalanish, tajribalarni namoyish qilish, maktab o'quv-tajriba uchastkasidagi amaliy ishlar vaqtida turli xil faoliyat ko'rsatish va hokazo). Metod va metodik uslublar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bir-biriga o'tishi mumkin. Masalan, o'quvchilarning turli xil tajribalari metod hisoblanadi, lekin o'qituvchi hikoya qilayotgan paytda tajribani namoyish qilinishi metodik uslubdir. Hikoya davomida o'qituvchining diafilm namoyish qilishi metodik uslubdir. Metod va uslublar kompleks holda qo'llaniladi, ular bir-birini to'ldiradi, tabiatshunoslik tushunchalarini to'g'ri shakllantirishga xizmat qiladi. Metodlarni

qo'llashda o'qituvchi o'quvchilarga asosan so'zlar vositasida, zarurat bo'lsa mavzu mazmuniga mos ko'rgazmali qurollarni ko'rsatish bilan bilim beradi. Bu paytda o'quvchilarning yangi bilim olishlari uchun asosiy manba so'zlar (og'zaki nutq) hisoblanadi. Og'zaki metodning asosiy turlaridan biri - hikoyadir. Hikoya o'qituvchining jonli so'zidir. U kitob o'qish, jism va hodisalarni namoyish qilish, texnika vositalardan foydalanish, badiiy adabiyotlar o'qish va boshqalar bilan uyg'unlashadi. Hikoyada izchilikka qat'iy hikoya qilinadi. Tabiiy fanlar mashg'ulotlarida hikoyaning aytib berish yoki ta'riflash, xarakterlash, tushuntirish, muhokama qilish kabi turlari qo'llaniladi. Aytib berish - unda konkret fakt, voqea, jarayon harakatlar haqida gapirib beriladi. Hikoya shohid (sayyoh, yosh tabiatshunos, sayyohatchi, kashfiyotlar ishtirokchisi) nomidan olib boriladi. Ta'riflash - borliq jismlar va hodisalarning (foydali qazilmalar, o'simliklar, hayvonot dunyosi, biror tabiiy zona iqlimi xususiyatlarini) izchil bayon qilishda qo'llaniladi. Xarakterlash - ta'riflashning bir turidir, u jism yoki hodisaning belgi va xususiyatlarini sanab o'tishdan iborat (tog', daryo va tabiiy zonalar xarakteristikasi). Tushuntirish - unda yangi tushunchalar, atamalar, ma'nosi ochib beriladi, sabab, oqibat bog'lanishi, u yoki bu narsaning mantiqiy tabiati (nima uchun tundrada o'zun tun va qisqa kun bo'ladi, nima uchun kun va tun, yil fasllari almashib turadi) ochib beriladi. Undan barcha darslarda foydalaniladi, u muhokama qilish bilan uyg'unlashadi. Muhokama qilish - bayon qilish asosida bo'lib, unda o'quvchilarni xulosaga olib keluvchi qoida va isbotlarning izchil rivojlanishi bilan bog'liq. Hikoyaning bu turida o'rganilayotgan hodisani (masalan, tirik mavjudodning o'zgarishiga iqlimning ta'siri, suv, metallning xususiyatlari) tahlil qilish zarurati tug'ilganda foydalaniladi. Hikoyaga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi: tanlangan o'quv materialini ilmiyligiga, mantiqiy izchilik va isbotlanishiga; o'quvchilar uchun aniq, ravon va tushunarli bo'lishiga: o'qituvchi nutqining tasviriy bo'lishiga javob berishi kerak. 12 sinflarda hikoya 5-8 minut, 3-4 sinflarda esa 10-12 daqiqa davom etishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi va tahlil natijalari. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda ta'lim falsafasining rolini o'rganish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar va tadqiqot usullari qo'llaniladi: Nazariy-tahliliy metod Ta'lim falsafasi, pedagogika va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy adabiyotlar, o'quv dasturlari va ilg'or tajribalar o'rganiladi. Tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida falsafiy tamoyillarning qo'llanilishi tahlil qilinadi. Dialektik yondashuv Ta'lim jarayonida bilimlarning o'zaro bog'liqligi, rivojlanishi va o'zgaruvchanligi o'rganiladi. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishdagi fundamental falsafiy muammolar tahlil qilinadi. Empirik tadqiqot metodlari Suhbat va so'rovnomalar:

O'qituvchilar va o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazilib, tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida duch kelinadigan muammolar va ta'lim falsafasining ahamiyati aniqlanadi. Kuzatish: Dars jarayonlarini kuzatish orqali tabiiy fanlarni o'qitishdagi ta'lim falsafasining samaradorligi baholanadi. Pedagogik eksperiment Falsafiy yondashuvlarga asoslangan yangi o'qitish metodlarini sinovdan o'tkazish va ularning samaradorligini tahlil qilish uchun eksperimentlar tashkil etiladi. Olingan natijalar asosida an'anaviy va innovatsion metodlarning taqqosiy tahlili olib boriladi. Komparativ tahlil Turli mamlakatlarning ta'lim falsafasi va tabiiy fanlarni o'qitish metodlari o'rganilib, ularning afzallik va kamchiliklari aniqlanadi. Sistemali yondashuv Tabiiy fanlarni o'qitishdagi falsafiy tamoyillarni ta'lim jarayoni bilan uzviy bog'liq holda o'rganish va bu tizimni yaxlit holda tahlil qilish uchun qo'llaniladi. Ushbu metodologiya asosida boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda ta'lim falsafasining ahamiyati, asosiy muammolar va ularni hal qilish yo'llari chuqur tahlil qilinadi. Hikoya jarayonida quyidagi didaktik uslublardan foydalanish muhim: I. Dars mavzusini e'lon qilish yangi mavzuni bayon qilish oldidan muammoli vaziyat vujudga keltiriladi. Yangi materialni o'rganish yoki tajriba o'tkazish, shuningdek, tabiatda o'tkazilgan kuzatishlarni tahlil qilish bilan boshlanadi.

II. Bayon rejasini bildirish. Bu uslub faqat o'zlashtirish jarayonini faollashtiribgina qolmasdan, balki o'quvchilarni butun bayon tizimini ko'rishga o'rgatadi, bu bilan tafakkurning mantiqiy izchilligini rivojlantirishga, o'rganilayotgan atrof hayot faktlari yoki hodisalarning o'rtasidagi muayyan bog'lanishlarni aniqlashga yordam beradi; masalan, «Cho'l tabiati» mavzusini bayon qila turib, o'qituvchi doskaga ushbu rejani yozishi mumkin: 1) tabiiy zonalar xaritasida cho'llarning geografik o'rni; 2) cho'l iqlimining xususiyatlari; 3) yuzasi; 4) vohalari; 5) cho'lda yil fasllari. O'quvchilar e'tiborini faollashtiruvchi savollarni bayon davomida berib borish. IV. O'quvchilarning idrok qilish faoliyatlarini faollashtiruvchi taqqoslash (masalan, dala, cho'l, dasht, o'rmonlarning o'simlik va hayvonot dunyosini taqqoslash va hokazolar). V. Yangi materialni bayon qilish davomida ilgari o'rganilgan mavzular turmush bilan, amaliyot bilan (masalan, «Skelet», mavzusini «Mushaklar» mavzusi bilan, jonajon o'lka tabiatini har xil zonalar tabiati mavzusi) bilan aloqasini turmushda, amaliyotda o'rganish. VI. Hikoyaga maqol, qiziqarli material yoki kitob o'qish epizodini kiritish. O'qituvchi hikoyasini tegishli maqolani o'qigandan keyin yoki undan oldin boshlashi mumkin. Qo'shimcha materialdan foydalanish hikoyani boyitadi va konkretlashtiradi. Hikoya davomida foydalanilgan maqol, matal va topishmoqlar darsni boyitib, bayon qilayotgan materialni o'quvchilar tomonidan qabul qilib olinishini osonlashtiradi.

VII. Ko'rgazmalilik (surat, jadval, texnika vositalari)ni qo'llash. Hikoya davomida ko'rgazmalilikning har xil vositalaridan foydalanish o'quvchilarda aniq tasavvurlar hosil bo'lishiga, o'rganilayotgan materialga diqqat va qiziqishni quvvatlashga, uni puxta o'zlashtirilishiga yordam beradi. Sxemalar, jadvallar, tajribalar, doska va daftardagi (atama) va xulosalar o'quv materialini o'zlashtirilishini yengillashtiradi. Suhbat savolning hal qilinishida o'quvchilar va o'qituvchilarning ishtirokida xarakterlanadi. Suhbatning maqsadga qaratilganligi o'quvchilar bilimini safarbar qilib, hal qilinishi kerak bo'lgan savollar bilan aniqlanadi.

Xulosa. Suhbat natijasida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tegishli xulosa chiqarishlari, xulosani umumlashtirishlari kerak. Suhbat o'quvchilarga notanish bo'lmasligi lozim: hali o'quvchilar o'zlashtirmagan, bilmagan bilimlarni «aniqlash» uchun vaqtni bekorga sarflash yaramaydi. Suhbat yakunlovchi, umumlashtiruvchi va yangi bilimlarni eskilari bilan bog'lovchi darslarda alohida ahamiyatga ega. Suhbatning bosh maqsadi shundaki, bunda o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar ongida tabiat jismlari hamda hodisalari haqida to'g'ri tasavvur va tushunchalar shakllanadi. Tabiat bilan tanishtirishning birinchi bosqichida suhbat o'qituvchining savollar berishi va chaqirgan o'quvchilarning savollarga javob berishi shaklida kechadi. Keyin suhbat boyib, kengayib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 3.X. Абдуназарова (2024). Tabiiy Fanlarni O'Qitishda O'Quvchilar Ekologik Tafakkurini Shakllantirishning O'ziga Xos Xususiyatlari. *Inter Education & Global Study*, (3), 123-129.
2. Abdunazarova, Z. (2024). The Content Of Using The Heritage Of Central Asian Thinkers In The Formation Of Ecological Thinking Of Primary Class Students In The Teaching Of Natural Sciences. *News Of The Nuuz*, 1(1.6.1), 43-45. <https://doi.org/10.69617/Nuuz.V1i1.6.1.3664>
3. Abdinazarova Zebiniso Khudoyshukurovna, . (2024). Pedagogical Significance Of Using The Heritage Of Central Asian Thinkers In Forming Ecological Thinking In Primary Class Natural Science Lessons. *International Journal Of Pedagogics*, 4(04), 95–97. <https://doi.org/10.37547/Ijp/Volume04issue04-18>
4. Abdinazarova Zebiniso Khudoyshukurovna, & Kasimov Shavkat Urolovich.(2022). Main Tasks Of Moral Education And The Role Of Youth inlife. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(4), 547–551.
5. Abdunazarova, Z. (2024). Developing The Opportunities Of Forming Students'ecological Thinking In The Teaching Of Natural Sciences. *World Bulletin*

Of Social Sciences, 32, 80-83.

6. Al-Buxoriy, Imom Ismoil. Hadis. Al jome' as-sahih. 4-kitob. - T.: - Qomuslar bosh tahririyati, 1997.- 528 b.

7. At-Termiziy, Abu Iso. Ash shamoil an-nabaviya.- T.: Cho'lpon, 1993. -112b.

8. Avazov Sh. Maktabda ekologik tarbiya.-Toshkent: O'qituvchi, 1992. 62 b.

9. Zebiniso Abdunazarova. (2023). Formation Of The Components Of Ecological Thinking In Primary Class Students. Emergent: Journal Of Educational Discoveries And Lifelong Learning (Ejedl), 4(07), 4-9.

10. Zebiniso Abdunazarova. (2024). Developing The Opportunities Of Forming Students' Ecological Thinking In The Teaching of natural Sciences. World Bulletin Of Social Sciences, 32, 80-83.

11. Zebiniso Abdunazarova. (2024). Developing The Opportunities of forming Students' Ecological Thinking In The Teaching Of Natural Sciences. World Bulletin Of Social Sciences, 32, 80-83.

12. Абдуназарова Зебинисо Формирование экологического мышления У Учащихся Начальных Классов "Экономика И Социум" 11(114) 2023

13. Абдуназарова, З. Х. (2024). Tabiiy Fanlarni O'qitishda O'quvchilar Ekologik Tafakkurini Shakllantirishning O'ziga Xos Xususiyatlari. Inter Education & Global Study, (3 (1)), 123-129

14. Z.X. Abdunazarova (2024). Boshlang'Ich Sinf O'quvchilarida Ekologik Tafakkurni Shakllantirishning Falsafiy Xususiyatlarini Takomillashtirish Ahamiyati. Inter Education & Global Study, (8), 342-348.

15. Абдуназарова З.Х. (2023). Формирование Экологического Мышления У Учащихся Начальных Классов. Экономика И Социум, (11 (114)-1), 486-489.

16. Z.X. Abdunazarova (2024). Boshlang'Ich Sinf O'quvchilarida Ekologik Tafakkurni Shakllantirishning Falsafiy Xususiyatlarini Takomillashtirish Ahamiyati. Inter Education & Global Study, (8), 342-348.

17. Zebiniso Abdunazarova. (2024). Developing The Opportunities Of Forming Students' Ecological Thinking In The Teaching Of Natural Sciences. World Bulletin Of Social Sciences, 32, 80-83. Retrieved From

18. З.Х. Абдуназарова (2024). Tabiiy Fanlarni O'qitishda O'quvchilar Ekologik Tafakkurini Shakllantirishning O'ziga Xos Xususiyatlari. Inter Education & Global Study, (3), 123-129.

19. Abdunazarova Zebiniso Khudoyshukurovna, . (2024). Formation Of Ecological Thinking In Teaching Natural Sciences. International Journal Of Pedagogics, 4(04), 91-94.

20. Abdunazarova, Z. (2024). The Content Of Using The Heritage Of Central Asian Thinkers In The Formation Of Ecological Thinking Of Primary Class Students In The Teaching Of Natural Sciences. News Of The Nuuz, 1(1.6.1), 43-45. <https://doi.org/10.69617/Nuuz.V1i1.6.1.3664>

21. Абу Али Ибн Сина Избранное В 2-х томах . Восточная философия (ал-Хикма ал - машрикийя) Руководство по философии (Китаб ал - хидая) Трактат об определениях (ар-Рисала фи-л-худуд) Трактат об этике (ар-Рисала фи-лахлак) . Душанбе – Ашгабат.: Культурный центр Посольства ИРИ в Туркменистане - 2003.,

22. Форобий Абу Наср Фозил одамлар шахри. - Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 1993.